



“HAYRAT UL- ABROR” DOSTONIDA FUTUVVAT G'OYASI TALQINI

Muslima Xolboyeva

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7091348>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Hayrat ul-abror” dostonida futuvvat g'oyasining maqolalar orqali yoritib berilgani tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: “Hayrat ul-abror” dostoni, futuvvat, futuvvatning shartlari, vujudiy shartlar, inson axloqi.

Adabiyotshunos olim N.Komilov : “ Tasavvuf Navoiyga jaholatdan qutilish, dunyoni bilishga, chanqoq yurakni ma'lum darajada tinchitishga ko'mak bergan. Buning ikki sababi bor: birinchisi shuki, Navoiy yashagan zamonning aqliy taraqqiyot darajasi, fan rivoji real dunyo voqealarini ilmiy asosda tushuntirishga o'zlashtirish qiyin edi. Ikkinchisi esa, bu yanada muhimroq: insonning aqliy imkoniyatlari, donoligi bilan axloqi, a'mol-niyati orasida mavjud bo'lib kelayotgan nomuvofiqlikdir. Navoiy aqlu zakovati hayratlanarli, qilni qirg'ovchi kishilar ichida nafs domiga tushgan, zulm va badkirdorligi bilan mashhur bo'lganlarini ko'p ko'rgan edi. Shuning uchun ulug' gumanist shoir axloqni - fazilatlar tarbiyasini birinchi o'ringa qo'yadikim, bu ham tasavvufona murojaat qilishga olib kelardi. Zero, tasavvuf butun e'tiborni aynan inson axloqini poklashga qaratib, shu maqsadda turli yo'l-yo'riqlar, amaliy tadbirlar ishlab chiqqan edi. Tasavvuf insonni vijdoni bilan yuzma-yuz qo'yib, o'zi haqida o'ylashga majbur etar, haqiqat va e'tiqod pokligi ruhida tarbiyalardi”[1, 158-159]. “Shu'ni ta'kidlash kerakki, hazrat Navoiy asarlarida futuvvat istilohini deyarli har doim muruvvat bilan o'zaro bog'liqlikda talqin etiladi. Bundan muruvvat tuyg'usi futuvvatning asosini tashkil etadi, degan xulosani chiqarish mumkin” [2,64]. Nafaqat o'zining zamonida balki butun insoniyat orasida axloq, saxovat, imon, qanoat, himmat kabi umumbashariy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan insonlar ko'payishini istagan Alisher Navoiy shaxs kamoloti haqidagi qarashlarini har bir asariga singdirdi. “Xamsa” tarkibidagi birinchi doston “Hayrat ul- abror” 1483- yilda yozilgan bo'lib, 3988 bayt, 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Dostonning muqaddima qismi 21 bobni o'z ichiga oladi. Asosiy qism 40 bobni o'z ichiga oladi.

21 –bob Hoja Bahouddin Naqshband va Hoja Ubaydulloh Ahror madhlariga bag'ishlangan bo'lib, Alisher Navoiy Hoja Bahouddin Naqshband ko'nglida saxovat nashqi mustahkam joylashgan deya ta'riflaydi:

Sobit aning ko'ngi aro naqshi jud,

Maxv o'lub ul safhada naqshi vujud.

Muqaddimadan so'ng, birinchi maqolat imon sharhi haqida bo'lib, Navoiy chin insonning belgisi imon deya ta'rif beradi:





Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga imon erur.

Shu o'rinda Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoni" asarida futuvvatning yetmish bitta sharti borligini, buning qirq sakkiztasi vujudiy, yigirma uchtasi azaliydir, deb ta'kidlaydi va bulardan: birinchisi islom; ikkinchisi – imon; uchinchi – aql; to'rtinchi – ilm; o'n to'rtinchi - hayo; o'n sakkinzinchi – sabr; o'ttiz sakkinchi- shukr qilish , deydi.

Dostonning ikkinchi maqolatida esa yuqoridagi vujudiy shartlarning birinchisi ya'ni Islom dini xususida to'xtalib o'tiladi. Islom dinining 5 ustuni:

- La ilaha illalloh (imon kalimasi);
- Namoz – namoz o'qishdan avval tahorat olinishi kerak . Navoiy yozadi, tahorat degani bu bir necha a'zolari suv bilan yuvish degani emas chunki uni har qanday xafsalasiz inson qila oladi, lekin latif tahorat borki, buning uchun avvalo, ko'ngilni yomon o'y – fikrlardan tozalamoq darkor. Tanani yuvish bilan birgalikda ruhni ham poklash kerak:

Jonni solib bo'yla tahorat aro,
Kim yuzida nuqtacha qolmay qaro.


Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Ruhiy tarbiya" kitobining birinchi juzi "Poklanish'ning "Ulug' zotlar tahorati haqida" gi qismida tahoratning to'rt darajasini sanab o'tadilar:

1. Sirtni betahoratlik, ifloslik va ortiqcha narsalardan poklash;
2. A'zolari gunohlardan poklash.
3. Qalbni yomon xulqlar va razolatlardan poklash.
4. Qalbni Alloh taolodan o'zga narsalardan poklash. Mana shu oliy maqsaddir. Kimning qalb ko'zi kuchli bo'lsa, shu talabga erishadi. Kimning qalb ko'zi ko'r bo'lsa, tahorat darajalaridan faqat birinchisidan boshqasini fahmlamaydi [4, 57].

Navoiy yozadi :

Ko'zni arig' ashki zuloli qilib,
Balki ko'ngulni dog'i xoli qilib.

- Zakot- Navoiy zakotni 2 qismga ajaratdi: asosiy qism va unga tutash qism. Payg'ambarimiz shariatiga muvofiq, har 40 diramdan bir qismi beriladi.
- Ro'za- Navoiy ro'zani 3 qismga bo'ladi.
- Haj- Haj saodatiga erishgan odamlar dashtu cho'lni ikki xil tarzda bosib o'tadilar, deydi Navoiy. Biri shunday insonki, u boy bo'lib, barcha kerakli narsalar muhayyo qilinsa va bir mehribon hamroh topilsa, farz etishni o'ziga maqsad qilib





qo'yadida, farzni ado etib bo'lib, orqasiga jo'nab qoladi. Ikkinchi xili fano ahliga mansub kishilar bo'lib, faqirlikni boylik deb bilishadi:

Lek ikkinchi buki, ahli fano,
Kim o'ziga faqrni bilgay g'ino.

Do'st tushub xotiri vayronig'a,
Shavqu talab o't solibon jonig'a.

Ho'y chekib, yo'lg'a tushub pil kibi,
Ishq o'tidin telbaragon el kibi.

Ming yog'och (1 yig'och – 5985 metr, ba'zi joylarda 8-9 kilometr ga teng) masofani yurib o'tarkan, ilk odimdayoq haj kiyimini kiyib oladi. Oldida na uning farzandi, oti, ulovi yoki karvoni bor.

Dasht anga gulshanu nasrin – tikan,
Yo'liki yonida mug'ilon chaman.


Harne samum anda esib rangi ol,
Borcha gulu lola uchurg'on sharxol.

Shunday shamol (garmsel ichida qolsa ham, u sog'lom), u atrof muhitni xuddi gulzor orasida shabada esayotgandek xis qiladi:

Haq anga rahmatni dalil aylabon,
Shu'lani gulzori Xalil aylabon.

Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Arafa kuni Alloh osmonga tushadi va ular ila farishtalarga maqtanib: "Bandalarimga qaranglar! Turli joylardan sochlari to'zigan , g'uborga belangan, oftobda qolgan holda huzurimga keldilar. Sizlarni guvoh qilamanki, albatta, Men ularning gunohlarini kechdim", deydi.[4, 100]

Dostondagi xayru ehson vasfi haqidagi beshinchi maqolat saxovat va karam vasfiga bag'ishlangan. Navoiy bu maqolatda fatiyning o'ziga xos sifatlarini keltiradi, ya'ni saxiy kishini saxovat uchun ochilgan panjasini (kaftini) Sharqdan qaraganda ham, G'arbdan qaraganda ham quyoshga o'xshatadi hamda Hotami Toyi hikoyatini keltiradi. "Futuvvatnomai sultoni" asarida qirq sakkizta vujudiy shartlardan: to'qqizinchisi – karam; o'ninchisi –muruvvat; o'n ikkinchisi – ehson; yigirma ikkinchisi – olihimmatlilik; o'ttiz sakkizinchisi – mazlumlarga yordam qo'lini cho'zish; o'ttiz to'qqizinchisi- yetim-yesirlar, yolg'iz kishilar ahvolini so'rab turish: qirq oltinchisi- kasallarni ko'rishga borish, deb keltiradi. Demak, bundan ko'rinadiki, futuvvatda saxovat asosiy tamoyillardan biridir. Hazrat Navoiy





“Hayrat ul-abror” dostonida Usmon (roziyallohu anhu)ni vasf etar ekan, mana bunday yozadi:

Sidq koniyu muruvvat maxzani,

Hilm bahriyu futuvvat ma’dani.

Haqqa yetishgan zot – xulafoi roshidinlardan biri Usmon roziyallohu anhu)ning sifatlaridan biri “futuvvat ma’dani” ekani ifodalangan ushbu baytda [2,66]. Beshinchi maqolatga qaytadigan bo’lsak, Navoiy saxiy kishining boshidagi bosh kiyimini ehson va saxovat tojiga qiyoslaydi va bu tojda xayru karam gavhari bor deb keltiradi. Bu gavhar esa yetti osmondagi eng qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Misoli saxovatli kishining qadri osmon kabi yuksaladi, qilgan ehsonlari esa yulduzlarga tenglashtiriladi.

Boshing uza judu saxo afsari,

Afsaring ustida karam gavhari.

Xusayn Voiz Koshifiy vujudiy shartlardan o’n to’rtinchisini hayo sifatida keltiradi. Navoiyning oltinchi maqolati esa odobga bag’ishlanadi va No’shiravonning hayosi haqida hikoyat keltiradi. “Futuvvat deb omma orasida yaxshi sifatlar va namunali axloq bilan mashhur bo’lishni aytadilar, - deya ta’riflaydi Koshifiy hamda futuvvatda parhez qilinadigan amallarni 23 tasini sanab o’tadi . Ma’n etiladigan amallarning oltinchisi – ko’p kulish deb keltiradi. “Hayrat ul-abror” dostonida oltinchi maqolat adablik odatiga bag’ishlangan. Navoiy ushbu maqolatda adabsizlikning belgisi kulgidir , deya ta’kidlaydi:

Tarki adabdin biri kulgu durur,


Kulgu adab tarkiga belgu durur.

Koshifiy futuvvatda vujudiy shartlarni :to’rtinchi – ilm; yigirma to’rtinchi – rahmdillik; yigirma sakkizinchi- ota onaga hurmat ko’rsatishligini sanab o’tadi. Navoiyning ushbu maqolatida shu sifatlarga to’xtalib o’tilganiga guvoh bo’lamiz. Navoiy tavozu sifatiga ega inson farzandi tarbiyasida uni ilm olishiga alohida ahamiyat qaratishi kerakligi hamda ilmu adab o’rgatish uchun muallim chaqirishi kerak deydi: “ It yetuk ta’lim olgani sababli u tishlab kelgan ov halol hisoblanadi. Yuvgan bilan toza bo’lmaydigan it olim bo’lgan ekan, o’g’ling bilimsizligicha qolib ketsa ajab kamchilik bo’ladi.

Qilmoq erur biri muallim talab,

Qilg’ali ta’lim anga ilmu adab.

Itga taallumda chu bo’ldi kamol,





Sayd aning og'zidin o'ldi halol.

Olim ul itkim najasul-ayn erur,
O'g'lunga jahl o'lsa ajab shayn erur.

Bu o'rinda Navoiy har bir insonga maslahatchi yoxud ustoz vazifasini bajaradi ya'ni tarbiyaning yana biri ota onani hurmat qilish va bu vazifani bajarish har bir farzand uchun majburiyatdir deya ta'kidlaydi: "Bu ikkisi xizmatni birdek qil, xizimating qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi!" Boshni fido ayla, ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Ikki jahoningg'a tilarsen fazo-
Hosil et ushbu ikisidin rizo.

Alisher Navoiy insonlarga rahm qilishni o'zinga qarz deb bil deya uqtiradi. Ota-ona, farzandlarga rahm qilishni farz deb hisoblashlik, kattalarni xizmatida bo'lish, kichiklarga esa shafqat ko'rsatish kerakligi adabdandiligini yozadi. So'ngra rahmning silasin qarz bil
Rahm o'shul toifag'a farz bil.

Kimki ulug'roq anga xidmat kerak,
Asra aning hurmatida e'tidol.

Dostonnig yettinchi maqolati qanoatga ba'ishlanadi. Koshifiyda: yettinchisi – parhez; o'n ikkinchi- ehson; o'n uchinchi – vafo; (sakkizinchi maqolat), o'n sakkizinchisi-sabr; o'ttiz yettinchi – shukr qilish; qirq uchinchi- shaytoniy nafsga qarshi dushmanlik ko'rsatish; qirq beshinchi- rizo-rozilik hissini yo'qotmaslik futuvvatning vujudiy shartlaridan ekanligini sanab o'tadi.

Bundan tashqari Koshifiy, futuvvatning botiniy ruknlarini 6 tasini sanab o'tadi. Olti ruknning uchinchisi qanoat deb keltiriladi. Koshifiy : "Odamlar boshiga tushadigan azob –iztiroblar, falokatlar ortiqcha narsalarga ega bo'lish hirsidandir" deydi hamda Rumiyning quyidagi baytini keltiradi:
Haris ko'zi to'yarmi hech dunyodin?
Qanoat bo'lmasa, dur bo'lgaymi sadafda.

Navoiyning ushbu maqolati mana shu shartlarni o'zida aks ettirgan. Maqolatda aytiladiki, qanoatni odat qilgan inson bilsinki, qanoat uni boy qiladi. Haqiqiy boylik oltin, kumush emas balki qanoat go'shasidir. Navoiy o'z kulbasida qanoat





qilib o'tirgan darveshni tamagir podshohdan ustun qo'yadi chunki tama qilish bu gadoylarning kasbidir.

Kulbada darveshki , qone' durur,
Foyiq erur shahg'aki, tome' durur.

Chunki tama' bo'ldi gadolar ishi,
Bilgi gadodur tama' etgan kishi.

Sakkizinchi maqolati esa vafoga bag'ishlanadi. Navoiy vafoni dunyoni yoritib turuvchi noyob dur yoxud gavharga qiyoslaydi. Hamda vafoli kishi misoli ko'zlarga nur bergan quyoshga o'xshaydi deya sifatlaydi. U ko'zlarni yoritadi-yu, lekin buni uning o'zi anglamaydi.

G'ayri hamul durku, jahontob erur,
Kim bu tengiz qarida noyob erur.
O'ylaki xurshed erur ayni nur,
Ko'zni yorutmoqda anga ne shuur.

Dostonning o'ninchi maqolati rostlik ta'rifida. Navoiyning fikriga ko'ra inson agar to'g'ri yo'lda bo'lmoqchi bo'lsa, o'zi ham so'zi ham to'g'ri bo'lmoqligi kerak. Hamda yolg'on gapirishni odat qilgan kishini musulmon inson deb bo'lmaydi, deydi.

Ulki shior ayladi yolg'on demak,
Bo'lmas ani eru musulmon demak.

Navoiy og'ir vaziyatda qolganingda ham rostini gapirishni ilojini qilolmasang, yolg'onni ham gapirma deb nasihat qiladi. Shundan so'ng "She'r va Durroj" hikoyatini keltiradi. Hikoyatda durrojning (qirg'ovul) yolg'onchiligi tuzoqqa tushishiga sababchi bo'ladi.

Har nechakim rost fig'on ayladi,
Sidqini ham kizb gumon ayladi.
So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo nag'mag'a tahsin degil.

O'n birinchi maqolatda Navoiy ilm osmoning yulduzlardek martabaliligi haqida gaprib turib, olimning sifatlariga to'xtalib o'tadi. Navoiy aytadiki, agar kimdir ilmni mashhur bo'lishda vosita qilsa , o'zini ham , xalqni ham yo'ldan adashtiradi. Amal uchun pastkashlik qilgan olimning ilmi uning bilimsizligiga dalildir, deydi. Haqiqiy olim o'z ilmiga qarab ish tutsa, xarom mollardan qochsa, o'tkinchi dunyoga berilmasa, bunday odamni sharaf gavharining koniga tenglashtiradi. Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoni" asarida futuvvatda





vujudiy amallarni sanab o'tadi. Mana shu amallarni o'ttiz ikkinchisi ko'p bilib, oz gapirish, ya'ni bilim mo'lligidan sukut saqlashdir. Demak, ilm ortib ketsa, ham behudaga gapirmaslik kerakligi, ilmim bor deb uni mashhur bo'lish yo'lida vosita qilmaslik kerak ekan. Navoiyning ushbu maqolati mana shu vujudiy amalning sharhi desak ham bo'laverar ekan. Navoiy maqolatdan so'ng Imom Faxr Roziy va Sulton Muhammad Xorazmshoh hikoyatini keltiradi. Hikoyatning mazmuniga ko'ra qiyomatda shoh ham, gado ham bir hil ahvolga tushadi faqatgina ilmi hunar egalari o'z ilmini ichkariga olib kira oladi, shohlar, amaldorlar yig'gan boylik esa tashqarida qoladi. Navoiy o'z so'zini, o'ziga nasihat bilan yakunlaydi:

Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o'ldi, amal aylagil.

O'n ikkinchi maqolatda, Navoiy qalam ahillari haqida so'z yuritar ekan, ularni 2 guruhga bo'ladi: maqbul va nomaqbul. Maqbul va nomaqbul kotiblarning o'zini yana bir necha xilga bo'ladi. Misol uchun, qozixona kotibi haqida so'z yuritar ekan, tuhmatchi deya ta'riflaydi. Uning ishi deydi Navoiy, g'ayri qonuniy bo'lgan narsalarni qo'llab quvvatlashdir. Odil guvohni pora olganlikda ayblab, unga tuhmat qiladi. Yolg'onni isbotlash uchun uzundan uzun aybnomalar yozib, xiyonatni diyonatga almashtiradi. Bundan tashqari Navoiy hiylagar mufti (fikir hayoli hiyla va makr), va devonxona kotibi (qalami odamlarni kuydirish uchun o'tin) kabi maqbul kotiblarga to'xtalib o'tadi. Koshifiyning asarida bunday amallar futuvvatda parhez qilinishi kerak bo'lgan amallar qatorida sanab o'tiladi jumladan qabih so'z so'zlash, odamlar bilan makr-hiyla yuzasidan muomala qilish, zulm o'tkazish, aldash, boylik orttirishga ruju', bo'xton- tuhmat qilish. Navoiy o'z so'zining davomini muqbil munshiylar sifatini ham keltirish bilan davom ettiradi. eng avvalari qatorida gavhar sochuvchi munshiydir deydi. Uning xati misli zulm vaqtida mazlumlar uchun zulmdan qutilish vositasidir, deya ta'riflaydi. Hamda kitob tuzish yo'lini tutgan munshiyning qog'ozlari mahbubaning yuziga, chiziqlari mo'ylabiga, har tomnda socilib yotgan nuqtalar esa uning xoliga o'xshatiladi. Asosiy maqbul kotib esa "Qur'on" oyatlarini yozadi, "Hadisi Sahih" kabi asarlarni tahrir qiladi va sharhini ham beradi. shu o'rinda Navoiy islom dini va tasavvufga oid asarlarni kotibning tasviri bilan birgalikda qo'llaydi:

Yozg'ali oyoti "Kalomi fasih",
Qilg'ali tahrir "Hadisi sahih",

Anda dog'i yozsa "Tafosir" ham,
Munda shuruh aylasa tahrir ham.





Gah bitisa "Tazkiratul-avliyo",
Gah raqam etsa "Qasasul –anbiyo",

Bir nafas "Ihyo" bila topib futuh,
Jahldin o'lgan tan aro bersa ruh.

Qilsa "Futuhot"ni gohi savod,
Topsa futuhotidin el yuz kushod.

"Hayrat ul- abror" dostonining o'n uchinchi maqolati esa bulutdek foyda keltiruvchi insonlarga bag'ishlanib, xalq ularni "yamqusu fil-arzi"¹ deb duo qiladi hamda faqat o'zini o'ylovchi, birovlarining dardi, iztirobi bilan ishi yo'q xudbin kimsalarni odam deb hisoblash mumkin emas deb yozadi:

Odamiy dersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

"Hayrat ul –abror" dostonining 62-63 boblari xulosaga bag'ishlanadi. Navoiy so'zining oxirida Allohga iltijo qiladiki, agar yozganlarim yaxshi bo'lsa, so'roq vaqtida rahm etgin; agar yozganlarim yomon bo'lsa, demak, o'zim boshdan oyoq yomonman, deydi:

Ham yomonim lutf bila yaxshi qil,
Bo'ldi chu ul yaxshi qabul aylagil.

Kamlik ila necha manga bo'lsa bim,
Sen karam aylakim, erursan karim.

Dostonning so'ngi bobi, 63-bobida oyog'i toyib ketgan qul haqida hikoyat keltiriladi. Saxiy bir podshoh bazmida bakovul quli oyog' toyib ketib, oshni podshohning boshiga to'kib yuboradi. Hamma qulni o'limini kutayotgan onda :
Shoh dedi lutf bila zavqnok:

"Kim ani xud xijlat etibdur xalok"

"Navoiy Allohni olijanob shohga , o'zini oyog'i toyib ketgan qulga o'xshatar ekan [5,108]", shunday yozadi:

Har necha ko'p bo'lsa gunohim mening,
Shukrki, bor sendek ilohim mening.

¹ Yer yuzida yashab yursin. //Alisher Navoiy.Hayrat ul-abror.-T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1989.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilov Najmiddin, Tasavvuf, Komil inson axloqi, birinchi kitob, Toshkent, "Movarounnahr"- "O'zbekiston" NMIU, 2009 y. B.158-159. Komilov Najmiddin, Tasavvuf, Komil inson axloqi, birinchi kitob, Toshkent, "Movarounnahr"- "O'zbekiston" NMIU, 2009 y. B.158-159.
2. N.Jabborov.Alisher Navoiy asarlarida futuvvat g'oyasining badiiy talqini//Alisher Navoiy va XXI asr mavzusidagi xalqaro ilmiy- nazariy anjuman.-T.: "Mashhur-Press", 2020
3. Alisher Navoiy.Hayrat ul-abror.-T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1989.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ruhiiy tarbiya. Poklanish . 1-juz.T.: "Hilol-nashr" 2021.
5. D.Yusupova.O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyot.-T.: "Tamaddun", 2016.

